XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-03-017-2-36-K/24 Kogon tumani

Kogon tumani boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsentlarni tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-6121-sonli Farmoni, Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilayotgan oʻzgartirishlar hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining 2024-yil 2-dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori loyihasiga asosan Kogon tumani boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qoʻllaniladigan koeffitsentlarni tasdiqlash maqsadida Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashining 2024-yil 2- dekabrdagi “Buxoro viloyati boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qoʻllaniladigan koeffitsentlar hamda mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori loyihasiga asosan Kogon tumani boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligida moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun miqdori 39 204 000 soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining miqdori 356 soʻm belgilanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimligi moliya boʻlimi (L.Xalimov) hamda tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) ning mahalla fuqarolar yigʻinlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy byudjet prognozidan kelib

chiqib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarini hisoblab chiqarishda kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash yuzasidan takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini aniqlash uchun qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:
-qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlarning 1 gektariga yuridik shaxslar bo‘yicha 2025-yilda Kogon tumani uchun belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahalalar kesimida **1- ilovaga;**
-jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) 2025-yilda Kogon tumani uchun 1 kv.m. yerga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari mahalalar kesimida **2- ilovaga**;
-2025-yilda Kogon tumani bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. 2025-yildaKogon tumani uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksining 445-moddasi bilan tasdiqlanadigan stavkalar o‘zgarishsiz qoldirilsin.
5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023 - yil 28 - dekabrdagi VI-76-153-2-36-K/23-sonli qarori 2025 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
6. Tuman hokimligi ushbu qaror bilan ma’qullangan Kogon tumani bo‘yicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlari hisoblab chiqarishda qo‘llaniladigan koeffitsentlarni ommaviy axborot vositalarida va tuman hokimligining rasmiy vebsaytida e’lon qilsin.
7. Mazkur qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.
8. Ushbu qaror 2025 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

QAZOQOV OTABEK NODIROVICH

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-03-017-2-36-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi

so‘mda

T/r.	Hududlar	2025-yil uchun	
		Xalq deputatlari tuman(shahar) kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2025 yil soliq stavkasi (1 gektar uchun)
	Kogon tumani (viloyat kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)	**1,00**	**39 204 000,0**
1	Beklar MFY	0,98	38 419 920,0
2	Istiqbol MFY	1,02	39 988 080,0
3	Niyoz-Xoji MFY	1.02	39 988 080,0
4	O‘bacho‘li MFY	1,02	39 988 080,0
5	Xo‘ja-Yakshaba MFY	1,02	39 988 080,0
6	Tun-Iroq MFY	0,87	34 107 480,0
7	Nurafshon MFY	0,72	28 226 880,0
8	Tutkunda MFY	1,45	56 845 800,0
9	O‘rta-Cho‘l MFY	0,71	27 834 840,0
10	Yangi-Xayot MFY	1,21	47 436 840,0
11	Suxor MFY	1,04	40 772 160,0
12	Kogon MFY	1,00	39 204 000,0
13	Sorg‘un MFY	1,00	39 204 000,0
14	Siyoz-Poyon MFY	1,04	40 772 160,0
15	Navro‘z MFY	1,16	45 476 640,0
16	B.Naqshband MFY	1,12	43 908 480,0
17	Hukmatobod MFY	0,88	34 499 520,0
18	Choloki MFY	0,98	38 419 920,0
19	Sarayon MFY	1,02	39 988 080,0
20	Geofizika MFY	1,09	42 732 360,0
21	O‘zbekiston MFY	1,09	42 732 360,0
22	Mustaqillik MFY	1,26	49 397 040,0
23	Taraqqiyot MFY	1,00	39 204 000,0

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-03-017-2-36-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r.	Hududlar	2025-yil uchun	
		Xalq deputatlari tuman(shahar) kengashi qaroriga asosan qo‘llanilgan koeffitsient	2025 yil soliq stavkasi
	Kogon tumani (viloyat kengashi tomonidan tasdiqlangan stavka)	**1,00**	**356,0**
1	Beklar MFY	0,85	302,0
2	Istiqbol MFY	1,02	363,0
3	Niyoz-Xoji MFY	1,05	374,0
4	O‘bacho‘li MFY	1,02	363,0
5	Xo‘ja-Yakshaba MFY	0,98	349,0
6	Tun-Iroq MFY	0,98	349,0
7	Nurafshon MFY	0,71	253,0
8	Tutkunda MFY	1,00	356,0
9	O‘rta-Cho‘l MFY	0,70	249,0
10	Yangi-Xayot MFY	0,98	349,0
11	Suxor MFY	1,05	374,0
12	Kogon MFY	1,02	363,0
13	Sorg‘un MFY	1,00	356,0
14	Siyoz-Poyon MFY	0,90	342,0
15	Navro‘z MFY	0,94	335,0
16	B.Naqshband MFY	1,00	356,0
17	Hukmatobod MFY	1,08	384,0
18	Choloki MFY	1,05	374,0
19	Sarayon MFY	1,08	384,0
20	Geofizika MFY	1,05	374,0
21	O‘zbekiston MFY	1,05	374,0
22	Mustaqillik MFY	0,90	320,0
23	Taraqqiyot MFY	1,10	392,0

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-03-017-2-36-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

№	Hudud nomi	Halq deputatlari Kengashi tomonidan 2025 yil uchun qo‘llanilgan koeffitsientlar (so‘mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin so‘m/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so‘m/m.kub		Marmar so‘m/m.kub		Granitlar so‘m/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so‘m/tonna		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so‘m/m.kub		Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so‘m/m.kub	
1	***2***	***Koeffitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsient***	***Soliq stavkasi***
1	**Kogon tumani**	1,10	6 776,0	1,00	10 000,0	1,00	20 000,0	1,00	30 000,0	1,10	17 545,0	1,15	5 313,0	1,15	5 750,0